

BUXORO KASHTACHILIK TERMINLARINING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI O'RNI

Umarova Shaxlo Baxridin qizi

O'zbek tili kafedrası tayanch doktoranti

Samarqand davlat pedagogika instituti

E-mail: shaxloumarova97@gmail.com

Tel: (+99893 734 24 15)

Annotatsiya *Ushbu maqolada kashtachilik terminlarining qo'llanilishi bilan bog'liq ma'lumotlar o'rin olgan. Shuningdek, kashta tikish bilan bog'liq so'z-terminlarga ham to'xtalib o'tilgan. Aynan Buxoro viloyatidagi kashtachilikning o'ziga xos xususiyatlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ro'yija, so'zani, qalampir, tanpokkun, kirpech, kashta, mato, bo'z, ilmoqli igna, "Chorchiroq", so'zana, kashtali bo'g'jama.*

Buxoro kashtachilik terminlarining o'zbek tilshunosligidagi o'rne.

Kashta tikish kasbi amaliy san'atning qadimgi sohalaridan biri sanaladi. Arxeologik topilmalar ham kashtado'zlikning deyarli barcha xalqlarda qadimiyligini, tabiiy sharoiti muhit bilan bog'liq holda har bir millatning madaniyati, san'ati bilan birga, ularning ta'siri bilan rivojlanganligini ko'rsatadi. Kashtachilikning paydo bo'lishi teridan tayyorlangan kiyim-kechaklardagi choklar va bog'lamlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq.

Kashtachilik Buxoro amaliy bezak san'atining turlari ichida o'zining tarixiy an'analariga ega bo'lgan san'at turi hisoblanadi. Buxoro milliy kashtachilik maktablari va san'atining o'ziga xos tabiiy bo'yoqlarni qo'llash usuli, ipakdan to'qilgan matolarda kashtalarning qadimiy nusxalari tikilayotganligi barchaning e'tiborini o'ziga jalb qilmasdan qolmagan. Bugungi kunda Buxoro viloyatining aynan G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Qorako'l tumanlarida kashtado'zlik maktablari faoliyat yuritmoqda. Ushbu maktablardagi kashtalarning o'ziga xos belgilaridan biri ulardagi yo'rma chokining o'zgacha uslubda ishlatilishi, havorang, pushti, binafsha, och sariq, qizil va ko'k ranglarning bir-biriga uyg'unlashishi sanaladi. Buxoro milliy kashtachiligidagi Shofirkon kashtalari alohida o'rin egallaydi. Shofirkon kashtachilik maktablarida "qarsdo'zi" uslubi ham ishlatiladi. Bu maktablarning tikuvchilari eng ko'p ishlatadigan naqsh mavzulari "to'pbarggul", "gulisafsar", "chinnigul", "namozshomgul", "bodom", "doiragul", "qalampir" kashta buyumlariga o'zgacha go'zallik bag'ishlaydi. Buxoro kashtachiligida mahsulotlar ko'proq yo'rma chok bilan tikiladi. Chevarlar buyum bezaklarida amaliy bezak san'atining boshqa turlaridagi naqshlardan andaza olishgan, kashtalarda o'simliksimon tasvirlardan, shox guldastalar uchraydi.

Buxoro kashtachiligida qo'llaniladigan so'z-terminlar ham o'zbek tili leksika qatlamlarining so'zga boyligini tasdiqlovchi dalil sanaladi. Ushbu leksik guruh tarkibida adabiy tilda ham, tadqiqot obyektimizda ham ma'no jihatidan bir-biriga bog'liq so'z-

terminlarning mavjudligini ta'kidlab o'tish joizdir. Kashta, kashtachi, kashtado'z, kashtachilik, kashtado'zlik, so'zana, qo'chqorak, lolanusxa, yo'rma, chok va boshqa ko'plab terminlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, adabiy til doirasiga kiritilmagan, biroq buxorolik kashtachilar va aholi nutqida ishlatilayotgan bir qancha so'z-terminlar ham qo'llaniladi. Kashtachilikda xilma-xil ma'nolarni anglatuvchi so'z-terminlar tarkib topgan. Buning dalili sifatida kashtachilik amaliy san'atining tadqiqotchilaridan biri O. Xudoyorovanning so'zlarini keltiramiz: "Kashta to'qilgan choyshaplar, ro'yijolar yangi kelin-kuyov o'rni ustiga yopish uchun tayyorlangan. Ko'rpa-yostiqlik ustiga yopish uchun esa takiya po'sh, taxsarp'o'sh, yostiqlik shlar tikilgan. Kashta tikib bezatilgan bo'g'jomaga kiyim-boshlar o'ralgan. Uylarning devorlarini bezatadigan gulko'rpalar, zardevorlar, so'zanalar kabi turli kashtalar tikilgan buyumlar tayyorlangan". Hozirda xalq orasida tarqalgan kashtachilik terminlari ommalashib bormoqda. Ko'plab taniqli kashtachi va viloyatlardagi boshqa kashtachilar qo'li bilan tikilgan kashtalar va ularning nomlarida bularni ko'rishimiz mumkin: oftobnusxa, g'uncha, choynak, ikki lola, karsangul, kosa kashta, chor davrasi, kelin-kuyov, no'xat, olmagul, shakar chinnigul, tovusunusxa, tol bargi, qo'ng'iz, qushoyoq, it tishi, qosh, qoshiqcha, chumchuqcha boshqalar.

Buxoro maktabiga xos belgilar shundan iboratki, ular o'rtacha o'lchamli, mukammal kompozitsiyali, bosiq rangli, handasaviy naqshli, ramziy o'simliksimon, oq, kulrang, mallarang asosda "yo'rma" chokidagi kashtalardir. Kashtalarning naqshlari esa "to'pbarggul", "doiragul", "turunch", "chorbarg", "kordi osh", "morak", "chashmi bulbul", "bodom", "hayot daraxti", "butagul", "yulduz", "ot tuyoq" va boshqa nomlar bilan ataladi. Buxoroda qadimiy ildizlarga ega bo'lgan xalq hunarmandchiligi an'alarini qayta tiklash, xalq amaliy san'ati usullari asosida faoliyat yuritayotgan xalq ustalari, hunarmandlar, ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va erkin raqobat muhitini yaratish masalalariga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston "Hunarmand uyushmasi va uning viloyat boshqarmalari O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidentining 1997-yil 31-martdagi "Xalq amaliy san'ati hunarmandchiligini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga asosan tashkil etilgan bo'lib, ushbu qarorga binoan uyushma a'zolari daromad solig'idan ozod etilgan. Kashtachilikka tegishli bo'lgan eng qadimgi namuna arxeologlar tomonidan shimoliy Xitoy hududidan topilgan. Buxoro milliy kashtachiligida Shofirkon kashtalari alohida o'rin egallaydi. Buxoro kashtalari, asosan, oq tabiiy karbosga tushirilsa, Shofirkon kashtalari sariq, oq, malla, yashil, siyohrang, shoyi va hisori matolarga ham tikilgan. Kashtalarda markaz va burchaklarda bo'rtib ko'rinuvchi yopiq kompozitsiya ko'proq uchraydi. Shofirkon kashtachiligida "qarsdo'zi" uslubi ham ishlatiladi. Shofirkon chevarlari eng ko'p ishlatadigan naqsh mavzulari "doiragul", "to'pbarggul", "gulisafsar", "chinnigul", "namozshomgul", "bodom" va "qalampir" kashta buyumlariga go'zallik bag'ishlaydi. Kashtalar bilan uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechaklar, ot, tuya, fil ustiga yopiladigan poponalar shular jumlasidandir. Kashtalardan turli xil buyumlar ham tayyorlangan.

Soʻzani-joy ustiga yopiladigan, devorga osib yosh kelin-kuyov uyini bezatadigan, toʻylarda kelin-kuyov boshiga chodir qilib tutadigan namoyon.

Joypoʻsh(roʻyijo)-joy, toʻshak ustiga yopiladigan, mehrobsimon qilib kashta tikilgan, oʻrta maydon va bir tomoni ochiq qoldirilgan yopinchiq. Fargʻona vodiysi, Toshkentda choyshab deyiladi.

Joynamoz-namoz oʻqish uchun uch tomoni kashta bilan tikilgan arkasimon koʻrinishdagi naqshlar kompozitsiyasiga ega namozlik.

Tanpokkun-nikoh sochigʻi. Eni 60-70 sm, boʻyi 160-200 sm ga ega ikki tomoni kashta tikib bezatilgan sochiq. Matohning arqogʻi “shabshula” tarzida pupak qilib chiqarilgan. Ip gazlama joyi atlas matodan tayyorlanadi. Kashtasi “yak roʻya”-bir tomonlama va “du roʻya”-ikki tomonlama “bosma” chokida tikiladi. Kirpech-kirpoʻsh, tokchaga taxlab qoʻyilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorni vertikal boʻsh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qoʻlda yoki mashinada tikiladi. U qoʻlda ilma kashta bilan bezatiladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi.

Kashtachilikda mato, kigiz, charm, jun, ipak, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metal pulakcha, qimmatbaho toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. Bu amaliy bezak sanʼatida ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, toʻgʻnogʻich, angishvona, qaychi hamda chamberaklar ishlatiladi. Badiiy kashtalarda turli joydan turfa choklar ishlatiladi. Shahrisabzda yoʻrma, kandaxayol, Iroqi, Toshkentda koʻproq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqand yoʻrma choki bilan tikiladi. Chamak choki-kashta tikish choklaridan biri boʻlib, chapdan oʻngga ikki parallel chiziq boʻylab tikiladi va ip oʻtkazilgan igna oʻngdan sanchiladi. Kuppa choki-turli yoʻnalishda, yaʼni chapdan oʻngga, oʻngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidirgʻa tikib hosil qilinadi.

Yoʻrma choki-yoʻrmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning oʻng tomonida halqalar zanjiri hosil qilib tikilib, bigizga oʻtkazilgan ip asosiy matoning sirtida chap qoʻl bilan ushlab turiladi.

Chindi xayoldu-roʻya choki, matoga igna qadalib bir meʼyorda tikib chiqiladi, teskari oʻgirib yana tikib chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Tursunova T. Oʻzbek tili amaliy sanʼat leksikasi.-Toshkent: Fan, 1978.B. 116-117.
2. Xudoyorova O. Oʻzbek kashtachiligi.-Toshkent, 2000.B. 20-21.
- 3.“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2002. B.195